



UDK:0:9(58)338:297.930.(584.4)

MILODDAN AVVALGI VII-VI ASRLARDA XORAZM VOHASI AHOLISINING IJTIMOIY TUZUMI, QABILALARNING BIRLASHUVI JARAYONLARI TARIXI

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich
Urganch davlat universiteti, Tarix kafedrasi dotsenti, PhD.
E-mail: hamdamtarix@gmail.com
Tel: (97)-601 09 40

Annotatsiya. Mazkur maqolada miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Xorazm vohasi va Sharqiy Orolbo‘yi hududlarida yashagan chorvador va yarim o‘troq saklar jamoalarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, xo‘jalik yuritish shakllari, harbiy demokratiya tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi va madaniyati tahlil qilingan. Saklar jamiyatida patriarxal oila va urug‘ tuzilishidan boshlab qabila yo‘lboshchilari va harbiy sardorlarning roli, shuningdek, qadimgi davr davlatchiligining shakllanish jarayonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Saklar, Xorazm, Sharqiy Orolbo‘yi, ijtimoiy tuzilma, yarim o‘troq xo‘jalik, patriarxal oila, qabila tizimi, “Avesto”, harbiy demokratiya, Ko‘zaliqir, bronza davri.

СОЦИАЛЬНЫЙ СТРОЙ НАСЕЛЕНИЯ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА В VII-VI ВЕКАХ ДО НАШЕЙ ЭРЫ, ИСТОРИЯ ПРОЦЕССА ОБЪЕДИНЕНИЯ ПЛЕМЁН

Аннотация. В данной статье анализируются социально-экономическая структура, формы ведения хозяйства, система управления на основе принципов военной демократии и культура сакских общин, проживавших в VII-VI веках до нашей эры в районе Хорезмского оазиса и Восточного Приаралья. Рассматриваются роли патриархальной семьи и родового строя, а также племенных вождей и военных лидеров в обществе саксов, освещаются процессы формирования древней государственности.

Ключевые слова. Саки, Хорезм, Восточное Приаралье, социальная структура, полуоседлое хозяйство, патриархальная семья, племенная система, «Авеста», военная демократия, Козалыкир, бронзовый век.

THE SOCIAL STRUCTURE OF THE POPULATION OF THE KHOREZM OASIS IN THE 7TH-6TH CENTURIES BCE, THE HISTORY OF THE TRIBAL UNIFICATION PROCESS

Annotation. This article analyzes the socio-economic structure, farming methods, governance system based on the principles of military democracy, and the culture of the Saka communities that lived in the Khorezm oasis and Eastern Aral Sea regions in the 7th–6th centuries BCE. It examines the roles of patriarchal families, clan structures, tribal leaders, and military commanders in Saka society, as well as the processes of early state formation.

Keywords. Sakas, Khorezm, Eastern Aral Sea region, social structure, semi-sedentary economy, patriarchal family, clan system, "Avesta," military democracy, Kozalykyr, Bronze Age.

Kirish. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Sharqiy Orolbo‘yi va Xorazm vohasida yashagan chorvador sak qabilalari hayoti va xo‘jaligi turli madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda mazkur hududlarda chorvachilik asosiy xo‘jalik sohalaridan biri bo‘lib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzi keng tarqalgan edi. Sak qabilalarining ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlar, diniy e‘tiqodlari va xo‘jalik faoliyatlari o‘z davriga xos bo‘lgan siyosiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotda “Avesto”da aks etgan ma‘lumotlar, arxeologik topilmalar hamda qadimgi yozma manbalarga asoslanib, ushbu hududdagi jamiyatning madaniy-ma‘naviy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sharqiy Orolbo‘yi va Xorazm vohasida yashagan chorvador sak qabilalari haqida turli tarixiy va arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, qadimgi yunon tarixchilari Gerodot, Strabon va Ktesiy asarlarida saklar haqida ma‘lumotlar uchraydi. Ushbu manbalarda saklarning ijtimoiy tuzilishi, urush taktikasi va turmush tarzi yoritilgan. Shuningdek, “Avesto”da chorvadorlarning xo‘jalik faoliyati, harbiy qurollari va diniy marosimlariga oid qimmatli ma‘lumotlar mavjud.

Metodologik asoslari. Tadqiqot davomida tarixiy-etnografik tahlil, arxeologik materiallarni tadqiq etish, yozma manbalarni solishtirish kabi usullar qo‘llanildi. Shuningdek, “Avesto” va yunon tarixchilarining asarlari ma‘lumotlari zamonaviy arxeologik tadqiqotlar bilan taqqoslanib, mazkur davrning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini chuqurroq anglashga harakat qilindi. Tadqiqot davomida sistemali yondashuv orqali qabilaviy jamiyatlarning xo‘jalik faoliyati va boshqaruv tizimi o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi.

Tahlil. Quyi Sirdaryo havzasida (Sharqiy Orolbo‘yi erlarida) yashagan saklar ko‘chmanchilar edi, aksincha, Xorazm vohasining g‘arbiy qismidagi Amudaryoning Dovdon va Daryoliq o‘zanlari hosil qilgan Sariqamishbo‘yi havzasida joylashgan saklar yarim o‘troq (yarim ko‘chmanchi) va o‘troq chorvadorlar bo‘lishgan, dehqonchilik chorvachilikning yordamchi sohasini tashkil etgan. Ularning madaniyati Sakarchaga mo‘z qo‘rg‘onlari, Quysisoy 2, Yassiqir va Qang‘ha kabi manzilgohlarida aniqlangan ma‘lumotlar asosida o‘rganilgan.

Bronza davrida keng o‘zlashtirilgan Xorazm vohasining sharqiy qismidagi Oqchadaryo deltasida mil. avv. VII-VI asrlarga oid manzilgohlar topilmagan. Ma‘lumki, bronza davrida Oqchadaryoning irmoqlaridan ariqlar chiqarilib, nisbatan kichik dalalar yarim er to‘la turar

joylari atrofida joylashib, dehqonchilik ishlari urug‘ jamoalarning kuchlari bilan amalga oshirilgan, sug‘orma dehqonchilik sohasi cheklangan holda rivojlangan.

Ilk temir davrida xo‘jalik-madaniy manzara ancha o‘zgargan. Sariqamishbo‘yi Dovdon vohasida manzilgohlar va mozor qo‘rg‘onlar baland qirlarda joylashgan va ularning tevaragida, qadimiy sug‘orish inshootlar-kanallar va ariqlarning izlari aniqlanmagan. Aholi sigirlar, qo‘y-echkilarni boqqan, chorvadorlar xo‘jaligida yilqichilik ham katta o‘rin egallab olgan [1, c. 121-123].

Tarixiy-etnografik ma'lumotlarga ko‘ra, dashtlar sharoitiga mos chorvachilik, asosan, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi (yarim o‘troq) shaklda rivojlangan, negaki bunday xo‘jalik sohasida ko‘p mehnat sarf qilinmagan, chorva uchun yaylov o‘ti ko‘proq emish bo‘lgan. Shu asosda tuyalar va sovliq qo‘ylar boqilgan, ular cho‘l qumtepalliklarda joydan joyga ko‘chishga moslashgan, aksincha, otlar daryo bo‘ylari to‘qayzorlarda yoki og‘illarda boqilib, don va beda bilan qo‘shimcha oziqlantirilgan [2, c. 54-56].

Sariqamishbo‘yi havzasidagi dashtlarida, ilk temir davri yodgorliklarning topografiyasi bo‘yicha, taxminan 180x120 kilometr maydonda chorva boqish bo‘yida (ichki Qizilqum cho‘li hisobga olinmaganda) bu ko‘rsatkichlar 250x150 km.ni tashkil etgan (ilova). Ushbu hududlarda turli mavsumlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi saklar jamoalari tomonidan chorva boqilishi va ko‘chib yurishi maqsadlarida foydalanganligini taxmin qilishi mumkin.

Bronza davridan boshlab Evroosiyo dashtlarida, jumladan, Orolbo‘yidagi chorvadorlar jamoalarida katta patriarxal oilalarning ajralib chiqqanligi ma'lum. Bunga ishlab chiqarish kuchlarning taraqqiyoti, qo‘shimcha mahsulotning qo‘lga kiritilishi, mahsuldor chorvachilikning rivojlanishi, ayirboshlash imkoniyatlarining kengayib borishi va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar ko‘maklashgan [3, 6. 38-40].

Arxeologik materiallar va ilk yozma manbalar guvohlik berishicha, mil. avv. VII asrga kelib, chorvadorlarning ijtimoiy tuzumida katta patriarxal (ota-o‘g‘illar) oilalarning iqtisodiy mavqei o‘tib borgan. Bu davr jamiyatning tuzilishi “Avesto” da tasvirlangan. “Avesto” ning “Yasna” kitobida oila, urug‘, qabila tilga olinib, jamoalarning ijtimoiy tarkibida kohin, jangchi, chorvador va hunarmand ajratilgan [4, c. 64].

Manba bo‘yicha oila-“nmana”, jamiyat tuzilishining boshlang‘ich (past) qatlamini tashkil etib, bir nechta qarindosh katta oilalar urug‘-“vis” jamoalariga birlashganlar.

Urug‘ tarkibida kamida 15 ta katta oila kirgan va urug‘ jamoasi jamiyatning asosi bo‘lgan. Urug‘ jamoalari qabila –“zantu “ ni tashkil etgan. Qabila yashaydigan xudud-“shoytra” deb atalgan [5, c. 139-144]. Bu ijtimoiy tuzum dashtlarda yashovchi cho‘ponlarning jamoalarida ko‘chmanchi chorvachilik shakli vujudga kelishi bilan ancha taraqqiy topgan [6, c. 81-94]. Qadimgi yunon tarixchilarning asarlarida dasht chorvador qabilalariga – savromatlar, daxlar, saklar va massagetlarga nisbatan “etnos”- xalq tushunchasi qo‘llanilmagan, ularning joylashgan hududlari muayyan nom bilan bog‘lanmasdan, faqat qabilalarning etnonimi tilga olinmagan. Masalan, ushbu xolat Gerodotning bayonida: “bu massagetlar jasur va behisob qabiladir [7]”

hamda Strabonning asarida: “massagetlar va saklar qabilalarining har biri o‘zining nomiga ega [8, c.4-5]” degan xulosalarda yorqin ifodalangan.

Xorazm vohasi va umuman Orolbo‘yi chorvadorlarining hayotida va xo‘jalik sohasida bronzadan va keyin temirdan mehnat qurollari va boshqa buyumlarni yasash katta ahamiyat kasb etgan. Shuni qayd etib o‘tish lozimki, Markaziy Osiyoning boshqa hududlari singari, Orolbo‘yi jamoalarining hunarmandchilik tarmog‘ida temirga ishlov berish bosqichidan boshlab, temir qimmatbaho metall hisoblangan, undan dastlab zeb-ziynat buyumlari sifatida ham foydalanilgan.

Uygarak mozor qo‘rg‘onidan bronza va kumush bilaguzuklari bilan birga temirdan yasalgan bilaguzuk topilgan [9, c. 81]. Sakarchaga mozor qo‘rg‘onida ikkita temir bilaguzuk qo‘lga kiritilgan [10, c. 31]. Bu topilmalar ham yuqorida uqtirilgan fikrlarni isbotlab beradi.

Saklarning mozor qo‘rg‘onlaridan olingan dafn jihozlari ichida qurol-yarog‘lar, ot-anjomi, bronzadan ishlangan suvliq, to‘qa va qubbalar joy olgan. Bronza to‘qa va qubbalaridagi yirtqich qushlar va hayvonlar tasvirlarida yaqin jihatlar mavjud. Dafn jihozlari ichida ot abzali yuganchalarini bezatgan bronza qubbalarda yirtqich qush, qoplon va to‘ng‘izlar tasvirlaridan iborat bo‘lib, ular dasht ko‘chmanchilari san‘atiga xos hayvon suratlarini chizish uslubida ishlangan [11, c. 72-89].

Mil. avv.VII-VI asrlarga oid saklar – xorazmliklarning ijtimoiy tizimi L.T.Yablonskiyning yozishicha, jangchilar, suvoriylar, kohinlar va kohina ayollar, urug‘ jamoalarining oddiy va qashshoqlashgan vakillaridan iborat bo‘lgan [12, c. 6]. Sharqiy Orolbo‘yida o‘rganilgan mozor qo‘rg‘onlaridagi kohina ayollar qabrlarida e‘tiqod va qurbonlikka bag‘ishlangan buyumlar va ayol-suvoriylarning qabrlarida esa ot anjomlari topilgan. Ushbu topilmalar sak-massagetlarning jamiyatida ayolning baland ijtimoiy o‘rni va mavqeidan hamda matriarxat izlari saqlanib qolganidan guvohlik beradi.

Gerodot va Ktesiy asarlaridan ma‘lum bo‘lgan sak-massagetlarning ayol yo‘lboshchilari – “malika-hukmdorlar” To‘maris va Zarina, yunon tarixchilari tomonidan, birinchi navbatda, harbiy yo‘lboshchilar sifatida yoritilgan. Shunga ko‘ra, ular harbiy ish va botirlik san‘atini erkaklar qatorida o‘rganib, jang usullarini bilishgan.

Shuningdek, Bobil, Ossuriyada kohinlar ko‘proq “Tamaris” ismga ega bo‘lganligiga oid ma‘lumotga asoslangan holda, malika Tumaris massagetlarning nafaqat harbiy boshlig‘i, balki bosh kohinasi ham edi, degan masala ilgari surildi [13, 6.72]. Albatta, mil. avv.VII asr Xorazm vohasida ham qabila yo‘lboshchisi bosh kohin vazifalarini ado etganligi ehtimoldan holi emas, chunki urug‘-qabila a‘zolari o‘zlarining sardorini jamoalarga eson-omonlik, farovonlik, harbiy muvaffaqiyat va mo‘llik olib keluvchi, umuman foyda keltiruvchi shaxs sifatida baholaganlar.

Natijalar. Shu bilan birga, diniy e‘tiqodlarining alohida xizmatchilari –kohinlar qatlamining ajralib chiqishini taxmin qilish mumkin. Ilk temir davriga kelib, saklar-xorazmliklar orasida ajdodlar ruhiga ehtirom ko‘rsatish, tabiat kuchlariga, quyosh va olovga sig‘inish ahamiyatli bo‘la boshlagan [14, 6. 51]. Harbiy demokratiya sharoitda qabilaviy ma‘buda urush, quyosh, osmon va urug‘ asoschilari – ajdodlar, bobokalonlar ruhi xislatlarini

o‘zida birlashtirgan. E’tiqodlar bilan birga “Avesto” bilan bog‘liq maxsus marosimlar ado etilgan. Shu qatorda kohinlar urug‘ an‘analari va odatlarini bilishgan, urug‘doshlar orasida ijobiy bilimlarni tarqatishga xizmat qilishgan [15, 6. 194-195].

“Avesto”da chorvadorlar mehnati qadrlanib, jangchi-suvoriylar botirligi, ularning qurol-yarog‘lariga oid ma'lumotlar keltirilgan. Saklar jamiyatida qurol-yarog‘larni ishlab chiqarish, katta o‘rin tutgan. Qurol-yarog‘-aslahalar va ot anjomlari maxsus hunarmandchilik ustaxonalarida ishlab chiqarilgan. Saklar va massagetlarning jangovar saflari, otliq qo‘shin va piyoda jangchilari haqida yozma manbalarda so‘z yuritilar ekan, ularning harbiy qismi asosini suvoriy-o‘qchilar tashkil etgan, jangda nayza va harbiy boltalar hamda xanjarlardan foydalanishgan. Yangi tadqiqotlarda Orolbo‘yida qadimgi harbiy ish qurollanish sohasi va jang taktikasi maxsus mavzu sifatida ko‘rib chiqilgan [16, 6. 62-94]. Saklarning boshqaruvi, katta oila va urug‘ boshlig‘i, qabila yo‘lboshchisi tizimiga asoslanib yuritilgan. Oqsoqollar kengashi va qabila yig‘inida hayotiy zarur masalalar hal qilingan. Qabila yig‘inida barcha qurolli jangchilar qatnashib, urush yoki sulh masalalari ham ko‘rib chiqilgan [17, c. 84-93].

Mil. avv. VII-VI asrlarda ushbu tizim ko‘p jihatdan siyosiy boshqaruv maqomi darajasiga etmagan, urug‘-qabila ijtimoiy odatlari va boshqaruv an‘analarini o‘zida aks ettirgan. Qabila yo‘lboshchilari va qabilalar uyushmalarining harbiy sardorlari oqsoqollar kengashi va jamoalar yig‘inida saylanib, boshqaruv tizimi “harbiy demokratiya” tamoyillariga asoslangan [18, 6. 188-196].

O‘tgan asrning 90-yillarida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining xodimlari Xorazm vohasida ilk davlatchilik tarixini qayta ko‘rib chiqishni boshlashgan. O.A. Vishnevskaya va Yu.A.Rapoportning yozishicha, Quyi Amudaryo havzasida arxaik (qadimiy) davlatning vujudga kelishini mil.avv.VII-VI asrlar chegarasi bilan belgilash kerak, Xorazm sivilizatsiyasining ilk bosqichi haqida gapirishga hammadan ko‘ra, uning ilk yodgorligi Ko‘zaliqir shahar xarobasi, shubhasiz, imkon beradi [19, c. 150-151]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Ko‘zaliqir qal’asi Xorazmda dastlabki sivilizatsiya yodgorligi va davlatchilik markazi sifatida tan olinib, ammo, ko‘p yillar davomida ilmiy adabiyotlarda amalda bo‘lgan va bahs-munozaralarga aylangan qadimiy Xorazm davlatchiligi tarixiga oid yondashuvlar va qarashlarga hech qanday munosabat bildirilmadi hamda ular tanqidiy baholanib, ko‘rib chiqilmadi. Masalaning e’tiborli jihat shundaki, bu qarashlar, xususan, Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Mil.avv. VIII-VII asrlarda Orolbo‘yi hududlarida yashagan chorvadorlar harbiy sohada va qurol-yarog‘lar ishlab chiqishda texnik yutuqlarga erishganlar. Tagisken, Uygarak va Sakarchaga mozor-qo‘rg‘onlaridan topilgan ot anjomlari, bronza va temirdan yasalgan harbiy qurollari Evroosiyo dashtlari ko‘chmanchi qabilalarning (skiflar, savromatlar) qurol-yarog‘lariga o‘xshab ketadi. Chorva ko‘chmanchilarning eng katta boyligi bo‘lgan. “Avesto”ning “Yasht” kitobida “podasi ko‘p”, “otlari ko‘p” qabilalar yo‘lboshchilari va harbiy sardorlari “yuz ayg‘ir, mingta sigir va sanoqsiz sovliq qo‘ylar”ni qurbonlikka keltirganlari haqida ma'lumotlar bor. Manbada chorva xo‘jaligi va bevosita chorvaga oid “chorva-hayot

manbai”, “biz chorvaga tinch o‘tlov va emish ta‘minlashga da‘vat etamiz” deyilgan [20, 6. 22-23].

Yuqori mahsuldor chorvachilik jamoa a‘zolarini, dehqonchilikka nisbatan, tez sur‘atda oziq-ovqat va xom ashyo mahsulotlari bilan ta‘minlashga hamda ulardan ayirboshlashda foydalanishga imkon yaratdi. Bu jamoa a‘zolarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash kundalik turmush tarzida jun, teri va charmdan ehtiyojlarni qondirishda muhim edi. Chorvachilik sohasi jamoalarni moddiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Shu sababdan, ayniqsa ko‘chmanchi chorvachilik sohasiga o‘tish chog‘ida, iqtisodiy va demografik omillari ta‘sirida yaylovlarning hududiy doirasini kengaytirish, yangi yaylovlarni va tabiat resurslarini egallab olish zarurati vujudga kelgan paytlarda, kuch ishlatish va boshqalardan mol-mulkini, chorva podalarini zo‘ravonlik bilan olib ketishga to‘g‘ri kelardi. Shu tufayli, harbiy ish, jang strategiyasi va taktikasi rivojlandi.

Xulosa. “Avesto” da ikki qirrali o‘tkir o‘qlar, tosh gurzi, harbiy oybolta, nayza, xanjar, qalqon, dubulg‘a, otlar qo‘shilgan jangovar aravalar va “chaqqon otlarga ega jangchilar” tilga olinib, o‘tgan davrlarda yuz bergan bosqinlar va urushlar, talon-tarojlik va turar-joylarning xarob qilinishi kabi-harakatlar ochib berilgan [21. 6. 67-68] .

Qadimgi chorvadorlar tarixida siyosiy uyushmalar va harbiylashish jarayonlarning paydo bo‘lishi nafaqat qo‘shnilarga qarshi yurishlar va bosqinlarni tashkillashtirish, balki birinchi galda, o‘z hududlari va yaylovlarni, turarjoylar va manzilgohlarini hamda chorva podalarini tashqi bosqinlardan himoyalash zarurati bilan belgilangan. Shu tufayli har bir cho‘pon qurollangan bo‘lib, otliq va piyoda qo‘shinlar safda dushmanga zarba berishga tayyor bo‘lgan. Bunday urug‘-qabila jamoalarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy muhit, yuqorida tasvirlangan “ichki ekspluatasiya” va “sinflarning ajralib chiqishi” ga oid taxminiy manzarasidan ancha yiroq bo‘lgan.

V.N.Yagodinining fikricha, mil.avv.VII asrning oxiri – VI asr o‘rtalarida Xorazmning g‘arbiy qismidagi Ko‘zaliqir yangi davlatchilik markazi bo‘lib, bu davlatning chegaralari Sariqamishbo‘yi hududlari bilan cheklangan. Davlat boshqaruvi yo‘lboshchi – “podshoh” hokimiyatiga, qabilaviy zodagonlar va harbiy qo‘shin kuchiga asoslangan. Ko‘zaliqirning ichki qal‘asi saroyida qabul marosimlari amalga oshirilgan va olovga sig‘inish bilan bog‘liq e‘tiqod marosimlari ham ado etilgan [22. c. 28-29].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Вайнберг Б. И. Скотоводческие племена в древнем Хорезме // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1981. – С. 121-123.
2. Сазонова М. В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. – Л., 1978. – С. 54-56.
3. Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). XI жилд. – Тошкент: “Ozbekiston”, 2023. – Б. 38-40.

4. Ясна. Глава XIX // Перевод Виноградовой С. П. Хрестоматия по истории Древнего Востока. – М.: “Высшая школа”, 1980. – С.64.
5. Лившиц В. А. Общество Авесты // История Таджикского народа. – М. 1963.Т. I. – С. 139-144.
6. Кузьмина Е. Е. Экология степей Евразии и проблема происхождения номадизма. II. Возникновение кочевого скотоводства // ВДИ. – М., 1997. № 2. – С. 81-94.
7. Герадот. I. 201.
8. Страбон. Кн. XI, VIII, 4-5.
9. Вишневская О. А. Культура сакских племён низовий Сырдарьи...С. 81.
10. Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья...С. 31.
11. Яблонский Л. Т. Формирование культуры саков Южного Приаралья // СА. — М., 1991. № 1. – С. 72-89.
12. Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья... С. 66.
13. Қурбонова Д. Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – Б. 172.
14. Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи. – Тошкент, 2017. – Б. 151.
15. Першиц А. И., Монгайт А. Л, Алексеев В. П. История первобытного общества. – М.: “Высшая школа” 1968. – С. 194-195.
16. Сатимов Б. Оролбўйида қадимги ҳарбий иш.. Б. 62-94.
17. Пьянков И. В. Общественный строй ранних кочевников по данным античных авторов // Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. – Л., 1975. – С. 84-93.
18. Матякубов Х. Х. Хоразм воҳасида қадимги бошқарув тизими ва ижтимоий муносабатлар муаммолари (бронза ва илк темир даври) // Ўзбекистон давлат бошқаруви ва маҳаллий ўз-ўзини бошқарув тарихи. – Тошкент, 2014. – Б. 188-196.
19. Вишневская О. А., Рапопорт Ю. А. Городище Кюзели-гыр...С. 150-151.
20. Авесто. Яшт китоби // М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: “Шарқ”, 2001. – Б. 22-23.
21. Авесто. Яшт китоби.. Б. 67-68.
22. Ягодин В. Н. Низовья Амударьи в эпоху распада первобытно-общинного строя и возникновения первичных государственных образований // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – С. 28-29.